

SH.I.IBROIMOV

LANDSHAFTSHUNOSLIK



UO'K 55(1/9):581

KBK 26.82

I-17

Sh.I.Ibroimov. Landshaftshunoslik. O'quv-qo'llanma. – T.: «ZEBO PRINT», 2025. – 208 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada tabiiy fanlar tizimida talabalarga landshaftshunoslik fan va amaliyotning keng yo'nalishlarini ifodalovchi fan bo'lib, landshaftlarning bir butunligi, uning morfologik qismlari va komponentlari o'zaro chambarchas bog'liq va aloqador ekanligi, ular orasidagi murakkab modda va energiya almashuvi jarayoni mavjudligi, geotizimlar haqidagi bilimlar keltirilgan. Atrof muhitni asrab avaylash hamda ularning tabiiyligini saqlab qolishga katta e'tibor qaratilgan.

O'quv qo'llanma geografiya, geografiya o'qitish metodikasi, geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishlari talabalari hamda shu yo'nalishlarning magistratlari, doktorantlariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

A.K.Urazbayev - *Geografiya fanlar doktori, professor.*

Taqrizechilar:

A.R.Matnazarov - *Geografiya fanlari falsafa doktori.*

O.U.Abdimurotov - *Pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent.*

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 - yil "14" "aprel" dagi № 136 - sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat etildi.

ISBN 978-9910-596-07-0

© Sh.I.Ibroimov, 2025

© «Zebo Print», 2025

Kirish

Landshaftshunoslik fani geografiya mutaxassislari uchun o'qitiladigan asosiy fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ma'mulakatimizda joylashgan oliy ta'lim muassasalarida tayorlanadigan malakali geografiya fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangandir. O'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra ilmiy-nazariy, amaliy va ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan bu fanning o'rganilishidan maqsad geograf talabalariga landshaftshunoslik fani bilan bog'liq bo'lgan barcha fanlar tizimi shu jumladan barcha tabiiy fanlarni o'zida mujassamlashtirishi va bog'liqligini o'rganadi. Ushbu fun talabalarda o'zlari yashaydigan ona Vataniga nisbatan vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi hamda uning go'zal tabiati va tabiiy boyliklariga nisbatan muhabbat va milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otishda muhim o'rin tutadi. Butun fan davomida tabiatga va uning boyliklariga oqilona munosabatda bo'lish tamoyillariga katta e'tibor beriladi. Har bir tabiiy geografik okrugining o'ziga xos xususiyatlari, ekologik muammolari bayon qilinadi.

Oliy o'quv yurtlarining geografiya mutaxassisligi uchun yozilgan ushbu o'quv qo'llanma tuproqlarni landshaftning ko'zgusi sifatida qarashga va shu bilan birga ularning dinamikasini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratadi. Shu omillarni hisobga olgan holda "Landshaftshunoslik" o'quv qo'llanmasi kelajakda Yer resurslaridan unumli foydalanishda atrof muhitga alohida e'tibor berishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida "Landshaftshunoslik" fanining amaliyotdagi rolini oshiradi.

LANDSHAFTSHUNOSLIKNING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

1. Landshaftshunoslikka oid g'oyalarning vujudga kelishi.
2. Landshaft tushunchasi va landshaftshunoslikning rivojlanish tarixi.
3. O'zbekistonda landshaftshunoslikning rivojlanishi.

Tayanch ibora va atamalar: *Tabiiy geografiya, Yer, resurs, ob'ekt, landshaft, iqlim, harorat, yog'in, namlik, tabiat, tarix, asr, atlas, daryo, tog', cho'l, qum, orol, tekislik.*

Landshaftshunoslikka oid eng dastlabki fikrlarning manbai Peterburg universitetining professori V.V.Dokuchayev (1846-1903) va uning ilmiy maktabiga mansub bo'lgan tabiatshunos olimlarning izlanishlariga borib taqaladi. Tuproqshunos va geograf olim, geografik zonallik qonuniyatini birinchi bor ilmiy asoslab bergan V.V.Dokuchayev o'zining 1883-yilda nashrdan chiqqan "Русский чернозем" nomli asarida yangi tabiiy jism, ya'ni tuproqni kashf qildi. Uning bu kashfiyoti yangi fanning, tuproqshunoslik fanining tug'ilishiga sabab bo'ldi. Vasilii Vasilyevich Dokuchaev (1846-1903) V.V.Dokuchayevning ta'kidlashicha, tabiatda bir jism, kuch yoki hodisa, ikkinchisi bilan doimo o'zaro murakkab aloqada bo'ladi va bu aloqadorlik vaqt o'tishi bilan o'zgarib turishi mumkin.

U tabiatni bir butun deb, qaysiki uning ayrim qismlari doimiy o'zaro ta'sirda va rivojlanishda deb qaraydi. Uning fikricha, tabiiy komponentlar va hodisalar alohida-alohida holda emas, balki bir butun majmua sifatida o'rganilishi kerak. Tabiat zonolari iqlim, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy omillar o'zaro ta'sir va aloqada bo'lgan murakkab tabiiy komplekslardir. Bu hozirgi zamon tabiiy geografiyasining fundamental

tushunchalaridan biri bo'lgan tabiiy geografik komplekslar haqidagi g'oyaning yuzaga kelishi edi. V.V.Dokuchayev tabiatning barcha jonli va jonsiz komponentlari orasidagi o'zaro nisbatlar va aloqadorliklarni hamda ularning birgalikda rivojlanish qonuniyatlarini tabiatshunoslik fanlari ichida o'ziga xos, yangi bir fan o'rganishi 42 kerak, degan xulosaga keladi. Bu fanning o'rganish predmeti, V.V.Dokuchayevning (1899) yozishicha: "Kuchlar, jamlar va hodisalar orasidagi, jonli va jonsiz tabiat orasidagi, bir tomondan o'simlik, hayvonot va mineral olami, ikkinchi tomondan inson, uning turmushi va hatto, ruhiy olami orasidagi abadiy va hamisha qonuniy aloqalardir".

Ana shu qonuniy aloqadorliklar va o'zaro ta'sirlarni o'rganishni u "Tabiatni bilishning mohiyati, haqiqiy natijalari va ularning yadrosi – tabiatshunoslikning eng a'lo va oliy jozibadidir" deb hisoblagan edi. U landshaft, landshaftshunoslik yoki geografiya so'zlarini ishlatmagan bo'lsa ham, o'z fikrlari bilan tabiiy geografik komplekslar haqidagi "Yangi geografiya" ning dunyoga kelishiga sababchi bo'ldi. Shu ma'noda mulohaza yuritgan L.S.Berg, V.V.Dokuchayevni landshaft haqidagi ta'limotning yaratuvchisi va hozirgi zamon geografiyasining asoschisi deb atagan bo'lsa, landshaftshunos N.A.Solntsev (1948) V.V.Dokuchayev landshaftshunoslikning tub asoslarini, ya'ni poydevorini yaratdi, deb ta'kidlaydi.

Uning dasht landshaftlarini o'zgartirish bo'yicha tuzgan davlatini inobatga olgan A.G.Isachenko (1991) esa V.V.Dokuchaev amaliy geografiya, aniqrog'i, amaliy landshaftshunoslikning ham asoschisidir, degan xulosaga keladi. V.V.Dokuchayev o'zidan keyin qator hamfikir shogirdlar qoldirgan olimlardan biridir. Uning g'oyalarini keyinchalik A.N.Krasnov (1862-1914), G.F.Morozov (1867-1928), G.I.Tanfiliev (1857-1928), G.N.Visotskiy (1865-1946), V.I.Vernadskiy (1863-1945), K.D.Glinka (1867-1927) kabi

MUNDARIJA

Kirish.....	2
LANDSHAFTSHUNOSLIKNING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISHI.....	4
LANDSHAFT HAQIDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR.....	30
LANDSHAFT TASHKIL ETUVCHI KOMPONENTLAR VA LANDSHAFTLARNING MORFOLOGIK QISMLARI.....	36
LANDSHAFT HOSIL QILUVCHI OMILLAR.....	46
LANDSHAFTLARDAGI ALOQADORLIKLAR VA TA'SIRLAR.....	53
LANDSHAFTLARNING CHEGARALARI.....	61
LANDSHAFTLARNING MAXSUS FAOLIYATI.....	86
LANDSHAFTLARNI O'RGANISHDA MODELASHTIRISH.....	92
YER YUZIDA LANDSHAFTLARNING TABAQALANISH OMILLARI VA QONUNIYATLARI.....	103
LANDSHAFTLARNI TASNIFLASH MASALALARI.....	115
LANDSHAFT VA INSON ALOQADORLIGI MASALALARI. ANTROPOGEN LANDSHAFTLAR HAQIDA TUSHUNCHA.....	123
AMALIY LANDSHAFTSHUNOSLIK. LANDSHAFTLARNI BAHOLASH.....	131
LANDSHAFTLAR TARAQQIYOTINI PROGNOZLASH.....	137
LANDSHAFT REJALASHTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	145
LANDSHAFT REJALASHTIRISH AMALIYOTI.....	153
TESTLAR.....	171
GLOSSARIY.....	188
ILOVALAR.....	194
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	204
MUNDARIJA.....	